

HUQUQLARINING AYBSIZLIK PREZUMIYASIDAN FOYDALANISH. INSONNING YETAKCHI HUQUQIDIR.

Musurmonova Xolida Alisher qizi

Termiz Pedagogika Instituti Milliy g'oya ,ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Aybsizlik prezumiyasi -yuridik javobgarlikka tortilgan fuqaroning aybi yo'qligi to'g'risidagi farazdir boshqacha aytganda aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha ,uni aybsiz deb faraz qilishdir.Bu normalar mamlakatimizda Jinoyat kodeksi ,Konstitutsiya va boshqa qonunlarda bu huquq ta'minlanadi.Asosan aybsizlik prezumiyasi ko'plab davlatlarda mavjud insonning huquqidir.Insonning aybi qonuniy dalillar orqali isbot qilunguniga qadar fuqaro foydalanishi mumkin.Mamlakatimiz mustaqil bo'lgandan keyin konstitutsiya orqali bu huquqni mustahkamladi.Aybsizlik prezumiyasi-fuqaroning halol-pokligi umumiy prezumiyasining namoyon bo'lishidir.U shaxsni javobgarlikka tortuvchi organga ushbu shaxsning aybini tasdiqlovchi dalilarni to'plash majburiyatini yuklaydi.Agar bular amalga oshirilmasa ushbu prezumiyasiga ko'ra fuqaro aybsiz hisoblanadi.Fuqaroning aybsizlik prezumiyasi shaxs huquqi va erkinliklarining ishonchli kafolatidir.Shundan ko'rinib turibdiki,aybsizlik prezumiyasi jinoyat protessining muhim demokratik belgilardan biridir.Demak,u shaxsning huquqlari muhofaza qilinishini ta'minlaydi,asosiz ayblash va hukm etishning oldini oladi.

ANNOTATION: The presumption of innocence is the assumption that the citizen who is held legally responsible is not guilty in other words,it is the assumption that the guilty party is innocent untill the crime is proven in a legal order.These norms are provided in our country's criminal code,constitution and other laws.Basically ,the presumption of innocence it is a human right that existens in many countries.Citizens can use it untill the guilt of a person is proven by legal evidence. After our country became independent it strengthened this right throug the constitution.The presumption of innocence is a manifestation of the general presumption of honesty of the citizen.It imposes the obligation on the body holding a person responsible to collect evidence confirming the guilt of this person.If this is not done,according to this presumption of innocence is a reliable guarentee of the rights and freedoms of a person.It can be seen that the presumption of innocence is one of the important democratic signs of criminal protest.It means

that in ensures the protection of the rights of a person and prevents unjust accusations and convictions.

Tayanch so'zlar: Yuridik javobgarlik, jinoyat protessi, prinsip, insonparvarlik, sudlanuvchi, fuqarolik, ayblanuvchi, mehanizm.

Keywords: liability, crime protest, principle, humanity, defendant, citizenship, the accused, mechanism.

Jinoyat huquqi va jinoyat protesti sohasida fuqaroning aybsizlik prezumiyasi ayblanuvchining aybsizlik prezumiyasida ifodalanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas. Ularning aybini isbotlab berish vazifasi ayblov organlari zimmasiga yuklanadi. Aybsizlik prezumiyasi prinsipiga binoan aybdorlikka oid barcha shubhalar basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, ayblanuvchining foydasiga hal qilinadi. Bu esa qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham ayblanuvchining foydasiga hal qilinishi lozimligini anglatadi. Bunday prezumiyasiga tarixda ilk bor buyuk fransua burjua inqilobi qonunlarida tariflangan va mustahkamlangan edi. Jumladan "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" ning 9-moddasida u o'z ifodasini topdi. Insonparvarlik namoyishi sifatida aybsizlik prezumiyasi 1948-yilgi "Inson huquqlari va umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir inson deb takidlanadi" ushbu deklaratsiya 11-moddasining 1-bandida unga himoya uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, sud majlisida oshkora tartibda qonuniy yo'l bilan uning aybdorligi aniqlanmaguncha beayb deb hisoblanishi huquqiga ega. Hozirgi vaqtda yuridik fanda ayblanuvchining aybsizlik prezumiyasi umume'tirof etilgan tushunchadir. Lekin mustabid sho'ro tuzumi davrida go'yo jinoyatchilikka qarshi kurashga xalaqit beradi degan bahonaga prezumiyasiga nisbatan keskin salbiy munosabat qaror topgan edi. Aslida esa u qonunsizlik va zo'rvonlikning gullab-yashnashiga xalaqit berardi. Huquqiy davlatni shakllantirish va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida borayotgan bizning mamlakatimizda aybsizlik prezumiyasi ilk bor Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topdi. Jumladan uning 28-moddasida shunday deyilgan "Jinoyat sodir etganlikda har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Aslida aybsizlik prezumiyasi prinsipi huquqning barcha tarmoqlarida amal qiladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi ning Jinoyat-protessual kodeksiga ilk bor "Aybsizlik prezumiyasi" degan 23-modda kirildi. Unda aybsizlik prezumiyasi o'zining aniq

ifodasini topgan. Chunonchi unda "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas deb bayon qilinadi. Unda yana shunday deyiladi. Aybdorlikka oid barcha shubhalar ham gumon qilinuvchining ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Aybsizlik prezumiyasi jinoyat ishi yuzasidan haqiqatni aniqlash kafolati hisoblanadi. Binoabarin, O'zbekiston Respublikasi ning Jinoyat kodeksi 4-moddasining 2-qismida hech kim sudning hukmi chiqarilmay turib, jinoyat sodir qilishda aybli deb topishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emasligi aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu qoidada aybsizlik prezumiyasi mohiyatining ikki jihati osib berilgan.

Ya'ni birinchisi jinoyatning muayyan tarkibini belgilash va shaxsning jinoyat sodir etganlikda iqror bo'lishini qonunga aniq rioya qilgan xolda amalga oshirish, ikkinchisi shaxs faqat sudning ayblov xulosasiga binoan aybdor deb topildishi va qonunda ko'zda tutilgan huquqiy chora yoki jazoga tortilishi mumkin. Demak shaxsning aybdorligini belgilash uchun faqat isbotlash tartib-qoidalarga riyo qilishning o'ziningina kamlik qiladi shu sababli jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari yetarlicha mavjud bo'lishi talab etiladi. Aybsizlik prezumiyasi tufayli isbotlash yukining shunday taqsimoti yuzaga keladiki, u ishning barcha holatlarini har taraflama va to'liq tadqiq etishini taminlaydi. Davlat organi va hokimiyati va tobelik munosabatlarida bo'ladigan jinoiy protessida prezumiyasning bo'lmasligi ayblanuvchi o'zaro hokimiyat va tobelik munosabatlarida bo'ladigan jinoiy protessda prezumiyaning bo'lmasligi ayblanuvchiga o'zining aybsizligini o'zi isbotlashiga majbur bo'lishiga olib kelar ayblanuvchi buning uddasidan chiqishi qiyin bo'ladi. Hozirgi holatda aybsizlik prezumiyasi fuqaroni asosiz hukm qilishga qarshi, uning qonuniy huquqlarining buzilishiga qarshi ishonchli kafolat sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shuning uchun ham zo'ravonlik mukarrar ravishda amalga aybsizlik prezumiyasida rad etishni, nazariyasida esa uning keraksizligi yoki katta nuksonligini isbotlashini ko'zda tutadi. Ayblanuvchining aybsizligi prezumiyasi ayblanuvchining o'zini himoya qilishi huquqi bilan chambarchas bogliqdir. Bu bog'liqlik shundan yumshatuvchi holatlar yoki aybsizligidan guvohlik beruvchi dalillarni keltiradi ekan, bu bilan u o'zining aybsizligini to'g'risidagi tahmini tasdiqlaydi. Ayblanuvchi sodir etgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs, u jinoyat protestining ishtitokchisi. Fuqarolik protestida huquqbuzar -oddiy javobgarlikkdir. Ma'muriy protestida javobgarlikka tortilayotgan shaxsni qonun ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs deb hisoblaydi. Lekin huquqbuzar qanday atama bilan ifodalanmasin, tarmoq qonunchiligida yuridik javobgarlikka tortilgan hamma

holatlarda ham u to qonunda ko'zda tutilgan tartibda aybi aniqlanmaguncha aybsiz deb tan olinadi.

Aybning isbotlanmagani va dalilarning to'liq emasligi zo'ravonlik va qonuniylikning buzilishiga qarshi muhim kafolat bo'lib, shaxsni javobgarlikdan ozod etadi. Xulosa qilib aytganda huquqiy g'oyalarning o'ziga xosligi yuridik fan va huquqshunoslarning jamiyat huquqiy hamda ijtimoiy hayotdagi o'rinini vazifasini shuningdek huquqni anglash va tushunishning ayrim qirralarini aniqlashga yangicha nuqtai nazarlardan turib yondashish uchun asos bo'ladi. Zero, chin ma'nodagi huquqiy g'oyalar ushbu ijtimoiy tuzilma negizida bevosita jadal kirib borishdir uning o'ziga xosliklari va xususiyatlari ifodalaridan biridir. Shu bois bunday g'oyalarni jamlovchi fan-yuridik fan ham pozitiv huquq bilan, uning butun borlig'i bilan huquqiy asos bilan o'zaro chambarchas munosabatda aloqada bog'liqlikda bo'ladi. Xullas huquqning ijtimoiy xususiyati bevosita jamiyat o'rnatgan xulq-atvor qoidalari aniq mehanizmlar asosida kishilar hayotiga tatbiq etilishini anglatadi. Kishilar ixtiyori bilan hokimiyat jamiyatda o'rnatilgan hulq-atvor, xatti-harakat qoidalarning barqaror holatda amalda bo'lishini taminlovchi birlamchi mehanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu sabali davlat aynan kishilar ixtiyori bilan qonunni buzgan shaxs larni jazolash huquqiga ega bo'ladi. Bu huquq eng avvalo davlat tomonidan fuqaroning qonuni buzganligi uchun javobgarlik majburiy atini bajarish borasida majburlov chorasini qo'llash huquqining tasarruf etilishini tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, jamiyatda totalitar rejimiga , o'zboshimchalikka, zo'ravonlikka o'rin qolmaydi, unda qonun, huquq , axloq , insonparvarlik va adolatparvarlik prinsipilarini hurmat qilinadi, inson huquqlari va erkinliklari haqiqiy himoyasi ta'minlanadi. Xullas, huquqning umumijtimoiy xususiyatlari bevosita jamiyat o'rnatgan xulq-atvor qoidalari aniq mehanizmlar asosida kishilar hayotiga tatbiq etiladi. Binobarin O'zbekiston xalqi turmushining farovonligi, uning huquq va erkinliklari kafotlanishi milliy an'ana va madaniyatning tiklanishi , shaxs sifatida kamol topishi uchun albatta huquq alohida o'rin tutadi.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR :

1. Z. Islomov Davlat va huquq nazariyasi . Toshkent 2007
2. SH. Sag'dullayev . Davlat va huquq nazariyasi . Toshkent 2021
3. Saburov va Sag'dullayev . Davlat va huquq tarixi . Toshkent 2019

FOYDALINGAN SAYTLAR:

1. LEX.UZ qonunlar sayti
2. GAZETA .UZ informatsion sayt
3. Daryo.uz informatsion sayt